

O'zbek tili. I chorak 2-BSB. Loyiha ishi (30 ball)

7-sinf

Loyiha ishi mavzusi: Hikoya yozish, unda omonim so'zlardan unumli foydalanish va hikoya asosida rasmlı kitobcha yaratish

ESLATMA: o'quvchilar o'zlari istagan mavzularda hikoya yozishadi va rasmlı kitob holiga keltirishadi. Yaxshi yozilgan hikoyalarni maktabning ijtimoiy tarmoqlariga joylash yoki ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish mumkin!

MUAMMO:

Kitobxonlik madaniyatining sustligi.

MAQSAD:

Kitobxonlik madaniyatini oshirish.

Loyiha ishi uchun qo'yiladigan talablar:

1. Hikoyani badiiy uslubda yozish.
2. Orfografik va punktuatsion xatolarga yo'l qo'ymaslik.
3. Omonim so'zlarni to'g'ri va o'rinli qo'llash.

Loyihani amalga oshirish bosqichlari:

- a) hikoya yozish uchun mavzu tanlash;
- b) hikoya janri haqidagi ma'lumotlar bilan tanishish;
- c) mashhur hikoyanavislarning (masalan, Abdulla Qahhor) bir nechta hikoyalarini o'qib chiqish;
- d) hikoyadagi voqealar ketma-ketligining rejasini tuzish va hikoyani yozish;
- e) hikoyani AKT vositalaridan foydalangan holda kitobcha holiga keltirish;
- f) taqdim etish (taqdimot uchun noodatiy yondashuv talab etiladi)

Rivojlantiriladigan, shakllantiriladigan ko'nikmalar:

1. Ijodiy va tizimli (izchil) fikrlash.
2. Tinglab tushunish.
3. Og'zaki nutq.
4. Yozish (tahrirlash)
5. Tahlil qilish.
6. Noodatiy taqdimotni rejalashtirish.

Loyiha ishining bosqichlari (xarita)

1. Mavzu tanlash.
2. Ma'lumot to'plash.
3. Xomaki nusxani tayyorlash.
4. Tahrirlash.
5. O'qituvchi tavsiyasini olish.
6. Qayta tahrirlash.
7. Taqdim etish.

Loyiha ishini baholash mezonlari			Ball	Jami ball
1	Loyiha mavzusi va bajarish bosqichlarining maqsad bilan uyg'unligi	Loyiha mavzusi va bajarish bosqichlari (xaritasi) loyiha maqsadini yoritishga xizmat qilgan, maqsadga erishish uchun noodatiy yondashilgan hamda maqsadga muvofiq tarzda taqdim etilgan bo'lsa,	5-4 ball	<u>5 ball</u>
		Loyiha mavzusi va bajarish bosqichlari (xaritasi) loyiha maqsadini yoritishga xizmat qilgan, ammo juz'iy kamchiliklar sabab maqsaddan biroz og'ish kuzatilgan bo'lsa,	3-2 ball	
		Loyihaning bajarish bosqichlari (xaritasi)dagi ketma-ketlikka amal qilinmagan, bu holat loyiha maqsadining yoritilishida aks etgan bo'lsa,	1 ball	
2	Loyiha ishi uchun qo'yilgan talablarning bajarilganligi	Hikoya badiiy uslubda yozilgan, imloviy hamda ishoraviy xatoliklarga yo'l qo'yilmagan, omonim so'zlardan mahorat bilan foydalangan bo'lsa,	10-7 ball	<u>10 ball</u>
		Hikoya badiiy uslubda yozilgan, ba'zi o'rinlarda imloviy hamda ishoraviy xatoliklarga yo'l qo'yilgan, omonim so'zlardan ayrim o'rinlarda foydalangan bo'lsa,	6-4 ball	
		Hikoya badiiy uslubda yozilgan, ammo ayrim o'rinlarda uslubdan chekinilgan, imloviy hamda ishoraviy xatoliklarga 8 dan ortiq o'rinda yo'l qo'yilgan, omonim so'zlardan ayrim o'rinlarda foydalangan bo'lsa,	3-1 ball	
3	AKT vositalaridan foydalangan	Yozilgan hikoya kreativ yondashuv asosida kitob holiga keltirilgan, hikoya mazmunini ochib beruvchi	10-7 ball	<u>10 ball</u>

	holda kitob tayyorlay olganligi va jamoa bo'lib ishlanganligi	suratlardan foydalangan, hikoyada qo'llangan ilmiy yoki shevaga xos so'zlarga izohlar yozilgan, jamoa bo'lib ishlagan bo'lsa,		
		Yozilgan hikoya kreativ yondashuv asosida kitob holiga keltirilgan, kitobchada suratlardan foydalanilgan, lekin hikoya mazmunini ochib berishga xizmat qilmagan, hikoyada qo'llangan ilmiy yoki shevaga xos so'zlarga izohlar yozilgan, jamoa bo'lib ishlagan bo'lsa,	6-4 ball	
		Yozilgan hikoyani kitob holiga keltirishda kreativ yondashuv kuzatilmagan, kitobchada suratlardan foydalanilgan, lekin hikoya mazmunini ochib berishga xizmat qilmagan, hikoyada qo'llangan ilmiy yoki shevaga xos so'zlarga izohlar yozilmagan, jamoa guruh bo'lib ishlagan bo'lsa,	3-1 ball	
4	Loyiha ishining ahamiyatliligi va xulosa	Taqdimotdan so'ng loyihaning istiqboldagi natijalarini taxmin qilish, shuningdek, orttirilgan tajribadan foydalanib, xulosa chiqarish, chiqarilgan xulosadan keyingi qadamlarni chamalab ko'rish mumkin bo'lsa,	5-4 ball	<u>5 ball</u>
		Taqdimotdan so'ng loyihaning istiqboldagi natijalarini taxmin qilish mumkin bo'lsa-da, xulosa chiqarishda aniqlik yetishmasa,	3-2 ball	
		Taqdimotdan so'ng loyihaning istiqboldagi natijalarini taxmin qilishga ehtiyoj bo'lmasa, jarayon yetarlicha xulosalanmasa,	1-0 ball	
	JAMI:			30 ball